



SURXON VOHASIDA XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANISH TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Muhammadiyeva Nilufar Muhiddin qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11382264>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2024 yil

Ma'qullandi: 25-May 2024 yil

Nashr qilindi: 29-May 2024 yil

KEY WORDS

“Boysun bahori”, Olimpiada, gimnastika, “Bes perde”, “Zilol”, “Vardonze navolari”, “Bog'don gullari”, “Vang'ozlari”

ABSTRACT

Ushbu tezida Surxon vohasida xotin-qizlar sportining shakllanishi, voha xotin-qizlar sportining respublika miqyosidagi o'rnini, xalqaro musobaqalarda voha qizlarining qo'lga kiritayotgan yutuqlari, Prezidentimizning xotin-qizlar sportiga berayotgan ulkan e'tiborlari, vohada o'tkazilayotgan xotin-qizlar o'rtasidagi musobaqalar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Surxondaryo viloyati xotin-qizlar sportiga berilayotgan e'tibor, voha sport majmualari ahvoli, xotin-qizlarni sport musobaqalariga jalb qilishdagi muammolarini hayotiy misollar bilan tushuntirishga harakat qilgan.

Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni turli xil yo'nalishlarini rivojlantirishda xotin-qizlarning tutgan o'rnini yildan-yilga o'sib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda nafaqat yoshlarga, xotin-qizlarga ham juda ko'p imkoniyatlar yaratmoqdalar. 2016 yildan 2022 yilgacha kelib sport va jismoniy tarbiya sohasida juda katta yangiliklar qildilar, xotin-qizlarga ham juda ko'p imkoniyatlar yaratdilar va qator qonun farmonlar ishlab chiqildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini” Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”ni amalga oshirishga davlat dasturiga muvofiq bir qancha ishlar qilindi. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarga jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirish uchun prezidentimiz tomonidan ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi. Buning natijasida ko'plab xotin va qizlar sportning turli sohalarida muntazam shug'ullanib kelishmoqda.[1]

Sog'lom turmush, navqironlik va go'zallik sport bilan shug'ullanishni taqazo etadi. Bugun xotin - qizlarimiz mana shu haqiqatni- sportning jisminiy va ruhiy barkamollikda muhim o'rin tutushini tobora teran anglab yetmoqdalar. Buni sportchi xotin- qizlarimiz safi kengayib borayotganida ham ko'rish mumkin. Erishilayotgan yutuqlar qatorida hal qilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar ham anchagina. Muammolarni keltirib chiqargan omillarni atroflicha o'rgangan holda, oila institutini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ayollarning huquqiy madaniyati va ma'naviyati yanada yuksaltirish choralari ko'rilishi lozim.[2]

Muammoni ilmiy tadqiq etish darajasini aniqlashda mavzuga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini uch guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga sovet davrida mavzuga doir e'lon qilingan ishlarni, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida mavzuga oid ishlarni, uchunchi guruhga esa xorijlik tadqiqotchilarning o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq ishlarini kiritish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlar sovet hukumati davrida yaratilgan adabiyotlar bo'lib, ularda kommunistik mafkuraning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ushbu adabiyotlarda O'zbekistonda xotin- qizlar sporti tarixining ayrim jihatlari tadqiq qilingan bo'lib, sohada qo'lga kiritilgan yutuqlarga keng o'rin berilgan holda muammo va kamchilik haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Ikkinchi guruh adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqot bo'lib, ushbu adabiyotlarda xotin-qizlar sportning ayrim turlari tarixi yoritilgan va bu tadqiqotlar ko'proq ilmiy-ommabop xarakter kasb etadi.[3]

Uchinchi guruh adabiyotlar xorijiy adabiyotlar bo'lib, ularda O'zbekistonda xotin qizlar sportining tarixi va mustaqillik yillarida rivojlanishi bilan bog'liq ba'zi jihatlari, Xotin-qizlarning sportida genbder tenglik masalasi, sohaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, xotin-qizlar sport musobaqalarini tashkil etish asoslari bilan bog'liq jihatlari ko'proq o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik yillarida Surxondaryo vohasida xotin-qizlar sportning turli yo'nalishlarida, jumladan, kurash sportida turli musobaqalar, tadbirlarning o'tkazilishi va ularda voha sportchi xotin-qizlarining munosib ishtiroki joriy arxiv materiallari hamda og'zaki dala tadqiqot materiallari asosida aniqlangan.

Mustaqillik yillarida voha sportchi xotin-qizlarining Olimpiada musobaqalarida, Jahon va Osiyo chempionatlarida munosib ishtirok etib, g'olibliklarni qo'lga kiritib kelayotganliklari Guljanoy Naimova, Shahnoza Oqbo'tayeva, Gulnora Sulaymonova kabi yoshlar misolida dalillangan.[4]

Vohada mustaqillik yillarida xotin-qizlarni sportga jalb etish borasida amalga oshirilgan, ularning sport bilan shug'ullanishlari uchun yaratib berilgan shart sharoitlar hamda bu borada Respublikada qabul qilingan qonunlar, dasturlar qaror va farmonlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar viloyatdagi mutasaddi jismoniy tarbiya tashkilotlarining yillik hisobotlari, joriy arxiv materiallari hamda davriy matbuot materiallari asosida yoritib berilgan.

Surxon vohasida xotin-qizlar sportini yanada rivojlantirishga to'siq bo'layotgan ba'zi masalalar, jumladan sport yuklamalari bilan bog'liq bo'lgan qiyinchilik, sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda sport zali va maydonchalarning yetishmasligi, sport musobaqalarini o'tkazishda sport anjomlarining yetishmasligi, yosh va individual xususiyatlarga bog'liqligi hamda qizlar bilan sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda umumiy sharoitlarga subyektiv munosabati, xotin - qizlarning gimnastika, yengil atletika va harakatli o'yin mashqlarini bajarishda individual va yosh xususiyatlari bilan bog'liq subyektiv munosabatlar kabi holatlar og'zaki dala tadqiqot materiallari bilan asoslangan.[5]

O'tmishdan baxshilar yurti sifatida shuhrat topgan Surxondaryoda o'tkazilayotgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivaliga 2002-yil asos solinib, ilk "Boysun bahori" ochiq folklor festivali o'tkazilgan. Unda mamlakatimizdagi folklor jamoalari o'zlarining alohida dasturlari bilan ishtirok etgan. 2004-yilda to'xtab qolgan ochiq osmon ostidagi nafis san'at bayrami 2017-yil qayta tiklandi. 2018-yil o'tkazilgan festivalda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda poytaxtimizda faoliyat ko'rsatayotgan "Bes perde", "Zilol", "Vardonze navolari", "Bog'don gullari", "Vang'ozi", "Yor-yor" singari eng namunali folklor

jamoalarining 250 nafardan ortiq qatnashchilari o'zlarining rang-barang repertuarlarini namoyish etishdi. [6]

2021-yil 9-12-aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida kurash bo'yicha Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan an'anaviy XV xalqaro turnir tashkil etildi. Unda dunyoning 27 ta davlatidan 105 nafar ishtirokchi qatnashdi. Shundan 75 nafari sportchilar bo'lib, ularning 15 nafarini xotin-qizlar tashkil etdi. [7]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi joriy arxivi
2. Jismoniy tarbiya va sport hisoboti. Surxondaryo viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi 2017, 2018, 2019, 2020 yil yig'ma hisoboti.
3. Surxondaryo viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi joriy arxivi. 2016-2020
4. F-361-fond, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
5. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi" o'quv qo'llanma. T. O'zDJTI 1997 yil 168 b.
6. Mualliflar jamoasi. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: Nur. 1991 yil 15 b.
7. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyati tarixini o'rganish. Toshkent: Sharq, 1997. – B. 46.

INNOVATIVE
ACADEMY